

ALISHER NAVOIY ASARLARI TILINING TAHLILI**Salimova Aziza Jumanazarovna****UrDU, Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi****+99877 138 15 50****azizakhansalimova@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522197>**

Buyuk shoir va mutafakkir bo'lmish Alisher Navoiyning adabiy til mavqeyi uchun olib borgan qattiq kurashi tarixda o'ziga xos o'ringa ega. Alisher Navoiy asarlari nafaqat o'zbek tilshunoslari tomonidan balki dunyo tilshunoslari tomonidan ham o'rganilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida shoir asarlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan bir necha nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Shuningdek, rus tilshunoslaridan V.V. Batold, akademik I.Yu. Krachkovskiy, akademik A.N. Kononov, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari Ye.E. Bertels, A.K. Borovkov, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolari Oybek, G'.G'.ulomov, V. Zohidov, V. Abdullayev kabilar Navoiy asarlarini fonetik, morfologik, leksik jihatdan yoritib berishga harakat qilganlar. Shu nuqtai nazardan o'zbek tilini o'rganilishi uzoq tarixga ega. Bu tilni tadqiq qilish har doim davr talabi asosida bo'lgan.

Eski o'zbek tilini o'rganilish tarixini shartli ravishda 2 davrga ajratish mumkin:

- a) Qoshg'ariy, Zamaxshariy va Navoiydan to XX asrning 20-yillarigacha (XI-XX asrlar)-bu davrda hal qilingan lingvistik muammolar til kategoriyalarining ayrim tomonlarinigina tashkil qiladi;
- b) XX asrning 30- yillarida to shu kunlargacha bo'lgan davr. Bu davrda til tarixini o'rganishga bag'ishlangan ishlar xarakter va mazmuniga ko'ra turlicha asoslarda bajarilgan. "Agar til tarixi masalasi bilan ilgari hech kim maxsus shug'ullanmaganligini hisobga olsak, A.K. Borovkovning o'zbek tili tarixi bo'yicha, grammatika va leksika bo'yicha yozgan maxsus ishlarining e'lon qilinishi dastlabki qo'yilgan jiddiy qadam edi"¹.

Navoiy asarlari tilini o'rganishda rus tilshunoslaridan A.N. Kononov, A.K. Borovkov, A.M. Sherbaklarning xizmatlari o'ziga xos o'ringa ega. Xususan, A.K. Borovkov "Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка" nomli asarida Alisher Navoiy asarlari tilini umumiy-nazariy va tarixiy-lingvistik asosda yoritib bergan. O'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lgan A. Navoiy 3 til-fors, arab va turkiy tillar o'zaro kurashayotgan davrda o'z asarlarini turkiy tilda yozdi. Uning "Hazoin ul maoniy", "Xamsa", "Lison ut-tayr" kabi badiiy adabiyot namunalari, "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon" kabi adabiyotshunoslikka oid asarlari, "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi tilshunoslikka oid asarlari turkiy tilda yaratilgan bo'lib, shoir bu asarlari orqali turkiy tilning badiiy, ilmiy asarlar yaratish uchun o'ziga xos boy imkoniyatlarga ega ekanligini amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham isbotlab berdi. Jumladan, fors tilining qaysi janr va uslubida asarlar yaratilgan bo'lsa, Alisher Navoiy ularning hammasida turkiy tilda asarlar yozdi. Shoir o'zining amaliy ishlari bilan o'zbek tilining ixcham grammatik qurilishiga va boy lug'at fondiga ega ekanligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy asoslab bergan adabiy til qanday negiz asosida paydo bo'ldi? degan savolga olimlar turlicha fikr bildiradilar. Xususan, A.K. Borovkov o'sha davrda arab, fors va turkiy til kurashi davom etayotganligini va Navoiy o'z ona tilining keng imkoniyatlarini ochib berishdagi ulug'vor

¹ Abdullayev F. O'zbek tilshunosligining taraqqiyoti. "O'zbek tili va adabiyoti". Toshkent, 1974.1-son.33-bet

mehnati deb hisoblasa, V.V.Radlov esa ma'lum darajada Sharqiy Turkiston tili ya'ni tilining ta'siri mavjudligini keltiradi. Chunki mo'g'ullar hujumi davrida ham adabiy til sifatida Sharqiy Turkiston tili asosiy rol o'ynagan. Boshqa bir olimlar esa bir-biridan farqlanuvchi hududiy dialektlarning mavjudligi deyishadi. Alisher Navoiy davrida turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar turli tuman bo'lgan va turli shevalarda so'zlashganlar. Bu shevalar bir-biriga ta'sir qilib adabiy tilga ham turli unsurlarini kiritib borgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Navoiy adabiy tiliga Andijon shevasi asos bo'lgan deb keltiradi. Boburning bu fikriga turkolog olimlardan G.Vamberi, V.Berezin qo'shiladi. Ammo N.I.Ilminskiy adabiy til bilan mahalliy shevalar o'rtasidagi munosabatning murakkab xususiyatga egaligini ko'rsatib, Navoiy adabiy tili Andijon shevasiga o'xshasa-da, unga butunlay mos kelmaydi deb izoh beradi. Chunki jonli xalq shevasida adabiy tildagidek chet til unsurlarining ko'p bo'lishi mumkin emas"².

A.K.Borovkov ham N.I.Ilminskiyning fikriga qo'shilib, Navoiy adabiy tilini Andijon shevasi bilan to'la mos deyish qiyin deb aytib o'tgan. Uning fikricha Navoiy Andijonda hech bo'lmagan, faqat andijonliklar bilan suhbatda bo'lgan³ xolos.

Avvalambor Alisher Navoiy adabiy tilining xususiyatlarini to'g'ri aniqlash uchun uning tilida mavjud bo'lgan tovush tarkibini va o'sha tovushlarning hozirgi dialektidagi ahamiyatini aniqlash zarur bo'ladi. Lekin Navoiy tili vokalizmining tarkibini aniqlash masalasida turli xil qarashlar mavjud. Masalan, K.K.Yudaxin XV-XIX asrlarda o'gan Lutfiy, Amiriy, Kimyobiylarning tuyuqlarini tahlil qilib, Navoiy davri adabiy tili hozirgi o'zbek tilidagi olti unli fonemaga ega deydi. Bundan tashqari u XV-XIX asrlardagi shoirlarning tili singormonizmsiz shahar shevalariga mos keladi deb xulosa chiqaradi⁴.

Olimlar bu fikrni noto'g'ri deb baholashgan. Chunki xronologik va geografik jihatdan bir-biridan juda uzoq shoirlar – Hirotlik Lutfiy (XV asr) bilan Qo'qonlik Amiriy (XIX asr) tili bir-biridan ancha farq qiladi. Bu narsa Alisher Navoiy tili va XV asr qo'lyozmalari olti unli tizimga asoslangan, degan fikrning rad etadi. Professor A.K.Borovkov Navoiy tilida sakkizta unli fonema mavjudligini e'tirof etadi. Ular **и** (индеферент "и"), **е** (yarim keng "э"), **а** (orqa qator "а"), **а** (old qator "а"), **о** (orqa qator "ў"), **о** (old qator "ў") lardan iborat deb ko'rsatadi o'z asarida⁵.

Shuningdek A.M.Sherbak ham eski o'zbek adabiy tilida sakkizta unli fonema borligini ko'rsatadi. Ammo A.K.Borovkovda bo'lgan old qator "а" unlisi Sherbakda yo'q. A.K.Borovkov "и" unlisini indeferent hisoblasa, A.M.Sherbak old va orqa qator "и" unlisi mavjud deb ko'rsatadi⁶.

Umuman Alisher Navoiy asarlari tilini tovush tarkibini aniqlashda uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi tovushlar tasnifini berilishiga e'tibor qaratish lozim deydi A.K.Borovkov.

Alisher Navoiy o'z asarlarida **u, o, o**, tovushlarini bir-biridan keskin farqlagan. Navoiy **и, е** harfi ham uchtdan qofiyadosh so'zda kelib ikki xil talaffuz qilinishini ko'rsatadi. Masalan, chin (rost)-chi:n Xitoy), biz (olmosh) va bi:z (bigiz) kabi. Demak, Navoiy co'ziq va qisqa **и** unlisini farqlaydi. Bu unli urg'usiz talaffuzda **е** unlisiga yaqinlashadi. Masalan, biz (olmosh), bez (go'shtdagi bez).

Alisher Navoiy asarlari tilidagi ba'zi unlilar tasnifi asosida shunday xulosaga kelish mumkin, Navoiy asarlari tili o'zining tovush tarkibi, unlilar tarkibi jihatidan, hozirgi o'zbek

² Ильминский Н.И. Вступительное чтение в курс турецко-татарского языка. Казань. 1862. с.37

³ Боровков А.К. Аlisher Navaii как основоположник узбекского литературного языка. Сб. Аlisher Navaii. М.-Л. 1946. с.93

⁴ Юдахин К.К. Материалы к вопросу о звуковом составе чигатайского языка. - "Культура и письменность Востока" Баку. 1929. с.62-68

⁵ Боровков А.К. Аlisher Navaii как основоположник узбекского литературного языка. Сб. Аlisher Navaii. М.-Л. 1946. с.104-107

⁶ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. М.-Л. 1962. с.66-67

tilining Toshkent, Samarqand va Buxoro shevalaridan farq qiladi. U tovush tarkibi jihatidan Andijon va Qo`qon tipidagi Farg`ona shevalariga yaqinroqdir. Chunki bu shevalarda **u** va **o** fonemalari qattqlik va yumshoqlik xususiyatlariga ega⁷.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Alisher Navoiy asarlari o`sha davr leksikasi, unda fors-tojik, arab tillarining o`rnini aniqlashda asos vazifasini o`tovchi boy madaniy meros hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hamidov Z. Navoiy asarlari tili leksikasi// Tilshunoslikning dolzarb masalalari. III.Toshkent 2006.
2. Doniyorov X. Alisher Navoiy va o`zbek adabiy tili. Toshkent 1972.
3. Muxtorov A.Sanaqulov U. O`zbek adabiy tili tarixi. Toshkent 1995.

⁷ Tursunov U., O`rinbayev B.,Aliyev A. O`zbek adabiy tili [tarixi.Toshkent.1995.122-bet](#)